

O‘ZBEKISTONDA ELEKTRON TO‘LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI

Shaislamova Muazzamxon Raximxodjayevna

TATU, PhD, katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

O‘zbekistonda elektron to‘lov tizimlarining shiddat bilan rivojlanayotganligini kundalik hayotimiz misolida ham aytishimiz mumkin. Bugungi kunga kelib barcha xizmat turlariga qo‘llaniladigan to‘lovlarni elektron tarzda amalga oshirish eng qulay va samarali usuldir. Elektron to‘lovlardan foydalanish oflayn mijozlarga xizmat ko‘rsatish va qog‘ozbozlikning kamayishi hisobiga samaradorlikni oshiradi va xarajatlarni kamaytiradi. To‘lovlarni elektron tarzda amalga oshirishda to‘lov tizimlari (to‘lov operatorlari) dan foydalangan holda amalga oshiriladi. 2020 - yil 5-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son Farmoniga muvofiq “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasining tasdiqlangani, O‘zbekistonda elektron to‘lov tizimlarining rivojlanishiga turki bo‘ldi deb hisoblash mumkin. Sababi strategiyada to‘lovlar va to‘lov tizimlarini takomillashtirish maqsadida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan qator vazifalar keltirib o‘tilgan. Misol tariqasida Uzcard va Humo to‘lov tizimlarining integratsiyalash vazifasini keltirish mumkin. Tadqiqot O‘zbekistonda elektron tijoratni barqaror rivojlantirish uchun mumkin bo‘lgan imtiyozlarni batafsil ko‘rib chiqadi.

Kalit so‘zlar: elektron tijorat, to‘lov tizimlari, Uzcard, Humo, kontaktsiz to‘lov, mobil to‘lovlar, biometrik autentifikatsiya, blokcheyn, tokenizatsiya

Аннотация

На примере повседневной жизни можно сказать, что в Узбекистане стремительно развивается система электронных платежей. На сегодняшний день наиболее удобным и эффективным способом является осуществление электронных платежей за все виды услуг. Использование электронных платежей повышает эффективность и снижает затраты за счет снижения качества обслуживания оффлайн-клиентов и бумажной волокиты. Оплата осуществляется с использованием платежных систем (операторов платежей) при осуществлении платежей в электронном виде. от 5 октября 2020 года № Уз. Рес. В соответствии с Указом Президента ПФ-6079-сон утверждение Стратегии «Цифровой Узбекистан — 2030» способствовало развитию электронных платежных систем в Узбекистане. Это связано с тем, что в стратегии определен ряд задач, которые необходимо выполнить в целях совершенствования платежной и платежной систем. В качестве примера можно привести задачу интеграции платежных систем Uzcard и Humo.

Ключевые слова: электронная коммерция, платежные системы, Uzcard, Humo, бесконтактная оплата, мобильные платежи, биометрическая аутентификация, блокчейн, токенизация

Abstract

On the example of everyday life, we can say that the system of electronic payments is rapidly developing in Uzbekistan. Today, the most convenient and efficient way is to make electronic payments for all types of services. The use of electronic payments increases efficiency and reduces costs by reducing the quality of offline customer service and paperwork. Payment is carried out using payment systems (payment operators) when making payments in electronic form. dated October 5, 2020 No. Uz. Res. In accordance with Presidential Decree PF-6079-son, the approval of the Digital Uzbekistan 2030 Strategy contributed to the development of electronic payment systems in Uzbekistan. This is due to the fact that the strategy defines a number of tasks that need to be completed in order to improve the payment and payment systems. An example is the task of integrating Uzcard and Humo payment systems.

Keywords: e-commerce, payment systems, Uzcard, Humo, contactless payment, mobile payments, biometric authentication, blockchain, tokenization

KIRISH

Elektron to'lov tizimi O'zbekiston hududida axborot texnologiyalari asosida tashkil qilingan to'lov tizimi bo'lib, u banklararo qog'ozsiz to'lov jarayonlarini o'tkazishga asoslangan. Ushbu tizim ustidan nazorat Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi. So'nggi bir necha yil ichida O'zbekistonda elektron to'lov tizimlari asta-sekin ommalashib bormoqda, chunki ko'proq odamlar to'lovlarni amalga oshirishning tezroq, xavfsiz va qulayroq usullarini izlamoqda. Elektron to'lov tizimlarining rivojlanishini 2000-yillarning boshlarida O'zbekiston Markaziy banki naqd pulsiz to'lovlar o'sishini rag'batlantirishga qaratilgan me'yoriy hujjatlarni joriy qila boshlagan paytdan kuzatilishi mumkin.

2017-yilda O'zbekiston hukumati tomonidan "2018-2022-yillarda elektron to'lovlarni rivojlantirish konsepsiyasi" ishlab chiqilgan bo'lib, uning maqsadi mamlakatimizda elektron to'lov tizimlarini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratishdir. Ushbu konsepsiya milliy to'lov tizimini yaratish, elektron to'lovlarni amalga oshirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, tadbirkorlik subyektlari va jismoniy shaxslar o'rtasida elektron to'lovlardan foydalanishni rag'batlantirish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan.

O'shandan beri O'zbekistonda elektron to'lov imkoniyatlari, jumladan, mobil to'lov tizimlari, onlayn to'lov shlyuzlari va elektron hamyonlar soni sezilarli darajada oshdi. O'zbekistonda eng mashhur elektron to'lov tizimlari qatoriga Click, Payme, Upay va Oson kiradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Elektron to'lovlarga bo'lgan talabning ortishi butun dunyoda kuzatilmoqda. Bugungi kunda to'lov tizimlari orqali siz onlayn va oflayn do'konlarda xaridlar uchun to'lovlarni amalga oshirishingiz, bankomatlar va terminallar xizmatlaridan foydalanishingiz, kommunal to'lovlarga, mobil telefon yoki virtual hamyonga pul o'tkazishingiz mumkin.

Oxirgi yillarda to'lovni onlayn ko'rinishda amalga oshirish usullari ishlab chiqildi. Onlayn tarzda to'lovni amalga oshirish standarti quyidagi shartlardan iboratdir:

-barcha uchun foydalanish qulayligiga ega bo'lishi (xaridorlar, sotuvchilar va uchinchi tomon buyurtmachi yoki moliyaviy tashkilotlar uchun);

-barcha uchun o'rnatish va qo'llash mumkinligi;

-global ko'rinishda ishlashi;

-barcha uchun yuqori xavfsizlikni ta'minlanishi.

Abstrakt qiymatni belgilash uchun pul yaratilishi bilan birgalikda turli xil to'lov tizimlari ham yaratildi. Barter tizimidan boshlab, keyinchalik kredit kartochkalar orqali to'lovlar amalga oshirildi va hozirgi kunda yangi elektron to'lov tizimlari ishlab chiqildi. Elektron tijoratning jadal rivojlanishi elektron to'lov tizimlarini rivojlantirishga va yangi tizimlarni ishlab chiqishga olib keldi.

To'lov tizimlari nima: ular qanday ishlaydi va ular nimadan iborat?

"To'lov tizimi" tushunchasi jamiyatni faol raqamlashtirish va bank faoliyatini avtomatlashtirish bilan bir vaqtda shakllantirilmoqda, lekin hali ham aniq ta'rifga ega emas. Biroq, har bir kishi to'lov tizimlarining iqtisodiyotdagi muhim rolini va to'lov tizimlarga zamonaviy talablarni belgilash zarurligini tushunadi.

Mamlakat milliy to'lov tizimini takomillashtirish masalalari bo'yicha bir qator iqtisodchi olimlar o'z ilmiy ishlarida ko'rib chiqqan.

To'lov tizimi turli olimlar tomonidan turlicha talqin etiladi. To'lov tizimining birinchi ta'riflaridan biri amerikalik iqtisodchi Bryus J. Summers tomonidan berilgan. Uning so'zlariga ko'ra, to'lov tizimi "Iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan pul to'lovlarini amalga oshirish uchun mablag'lar yig'indisidir".

Jahon banki mutaxassislaridan yana biri O.Margaret to'lov tizimiga quyidagicha ta'rif bergan: "To'lov tizimi — bu pul mablag'larini o'tkazish mexanizmidir". To'lov tizimiga yana bir ta'rif Rossiyaning iqtisodchisi M.P.Beryozina tomonidan berilgan bo'lib, unga ko'ra "mamlakatning to'lov tizimi — bu iqtisodiy faoliyat natijasida yuzaga keluvchi qarz majburiyatlarining bajarilishini ta'minlovchi, qonuniy boshqariluvchi elementlar yig'indisi". Bu ta'rif mazmunan Bryus Sammersning ta'rifiga yaqinroq ekanligini ko'rish mumkin, ya'ni bu ikki ta'rifda "yuzaga kelgan majburiyatlar" degan tushuncha ishlatilgan.

Rossiyalik iqtisodchilar V.V.Sarey va A.A.Kantarovich to'lov tizimiga quyidagicha ta'rif bergan: „To'lov tizimi to'lov vositasi sifatida elektron raqamli pullarni ishlatish orqali zaruriy bo'lgan dasturiy vositalar yig'indisi hisoblanadi”.

V.G.Solov'yevning ta'kidlashicha: "To'lov tizimi — bu hisob-kitoblarni amalga oshirishni ta'minlovchi qoida va mablag'lar kompleksidir". Ushbu ta'rifda ham asosiy urg'u hisob-kitoblarni amalga oshirish qoidalari hamda pul mablag'lariga berilmoqda.¹

Bugungi kunda jahon amaliyotida to'lov tizimlari deganda ishtirokchilar o'rtasida pul mablag'larini ayirboshlash vositalari, tartiblari va qoidalari majmui, kelishuv

¹ Халқаро молия ва ҳисоб" илмий электрон журналі. № 4, август, 2019 йил с. 3-9 // URL: <http://interfinance.tfi.uz/?p=1308>

operatori va ishtirokchilardan iborat tizim tushuniladi. Yevropa Parlamentining Direktivasi to'lov tizimining biroz boshqacha funksional cheklangan ta'rifini beradi: "To'lov tizimi — rasmiy va standartlashtirilgan tartib-qoidalarga va to'lov operatsiyalarini qayta ishlash, klining va hisoblashning umumiy qoidalariga ega bo'lgan pul o'tkazmalari tizimi."¹

METODOLOGIYA

Raqamli to'lov — bu mobil hamyonlar yoki mobil to'lov ilovalari kabi raqamli to'lov texnologiyalaridan foydalangan holda pul yoki raqamli valyutani bir hisobdan boshqasiga o'tkazishdir. Raqamli to'lovlarni elektron to'lovlar deb ham atash mumkin.

Elektron to'lov tizimi raqamli ravishda ikki tomon o'rtasidagi moliyaviy operatsiyalarni osonlashtiradi. Onlayn xaridlarga o'tish jadallashishda davom etar ekan elektron to'lov usullari manfaatdor tomonlarni o'z strategiyalarini qayta ko'rib chiqishga majbur qilmoqda. Internetdagi elektron to'lovlarga quyidagilar kiradi:

- bank o'tkazmalari;
- elektron cheklar;
- hozir sotib ol, keyinroq to'lash (Buy Now Pay Later (BNPL)) echimlari.

O'zbekiston so'nggi bir necha yil ichida elektron to'lov tizimlari infratuzilmasini rivojlantirishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Elektron to'lov tizimlarida bir nechta zamonaviy texnologiyalar qo'llaniladi. Bular:

- kontaktsiz to'lov (Near Field Communication (NFC));
- mobil to'lovlar;
- biometrik autentifikatsiya;
- blokcheyn;
- tokenizatsiya;
- tezkor to'lovlar.

Kontaktsiz to'lov — bu karta va terminal o'rtasida aloqa bo'lmagan to'lov, ya'ni terminalga chipli kartani kiritish yoki magnit lenta bilan kartani terminal ustiga surish kerak emas. Kartani yoki boshqa qurilmani terminalga 4 sm gacha bo'lgan masofada olib kelish kifoya shuning o'zidayoq sizning xaridingiz to'lanadi. Kontaktsiz to'lovlar qulayligi, tezligi va kuchaytirilgan xavfsizlik xususiyatlari tufayli tobora ommalashib bormoqda. Ular butun dunyo bo'ylab savdogarlarda, jumladan, chakana savdo do'konlarida, restoranlarda va jamoat transporti tizimlarida keng qabul qilinadi. Kichik xaridlar uchun PIN-kod talab qilinmaydi. O'zbekistonda Humo to'lov tizimi uchun bu 50000 so'm ni tashkil qiladi.

Kontaktsiz to'lovlar mamlakatimizda rivojlanishda davom etmoqda. Bunga misol tariqasida "One Touch" tizimini keltirish mumkin. One Touch — terminalsiz to'lovlarni qabul qilish xizmati hisoblanadi. One Touch tizimi – Turonbank tomonidan O'zbekistonda joriy etilgan birinchi innovatsion xizmatlardan biri bo'lib, to'lovlarni tez va oson qabul qilish uchun mo'ljallangan. To'lovlar kartani mobil telefonga

¹ Азимут научных исследований: экономика и управление. 2019. Т. 8. № 3(28) с. 382-384 // URL https://cyberleninka.ru/viewer_images/18300977/f/1.png

tekkizish orqali qabul qilinadi. Ya'ni tadbirkorlar HUMO terminallari o'rniga One Touch dasturiy tizimi o'rnatilgan smartfonlardan foydalanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Elektron to'lov tizimlari (ETT) ishtirokchilari, odatda, iste'molchilar, savdogarlar va moliyaviy institutlar hisoblanadi.

Iste'molchilar elektron to'lov tizimlarining oxirgi foydalanuvchilari hisoblanib, ulardan xarid qilish yoki pul o'tkazish uchun foydalanadilar. Iste'molchilar ETTga kirish uchun smartfonlar, planshetlar yoki kompyuterlar kabi turli xil qurilmalardan va xohishiga ko'ra turli xil to'lov usullaridan (debet kartalari, kredit kartalari, mobil hamyonlar yoki raqamli valyutalardan) foydalanishlari mumkin.


Savdogarlar mijozlardan elektron to'lovlarni qabul qiladigan korxonalardir. Bu oflayn do'konlar, onlayn-do'konlar, xizmat ko'rsatuvchi provayderlar yoki davlat idoralari bo'lishi mumkin. Elektron to'lovlarni amalga oshirish uchun savdogarlar moliya institutida yoki to'lov tizimida savdo hisobiga ega bo'lishi kerak. Savdogarlar o'zlarini va mijozlarini himoya qilish uchun xavfsizlik va firibgarlikning oldini olish choralariga rioya qilishlari kerak.

Moliyaviy institutlar iste'molchilar va savdogarlar o'rtasida vositachi bo'lib, elektron to'lov tizimlari uchun infratuzilmani ta'minlaydi. Bu banklar, kredit karta emitent-kompaniyalari, to'lov tizimlari yoki pul o'tkazadigan boshqa tashkilotlar bo'lishi mumkin. Moliyaviy institutlar hisob ma'lumotlarini tekshirish, to'lovlarga ruxsat berish va mablag'larni hisob-kitob qilish orqali tranzaksiyalarning xavfsizligi va to'g'riligini ta'minlaydi. Ular o'z xizmatlari uchun haq oladilar va firibgarlik yoki sukut kabi ba'zi xavflarni o'z zimmalariga oladilar.

ETTning yuqorida keltirib o'tilgan asosiy ishtirokchilarga qo'shimcha ravishda tartibga soluvchi tashkilotlar, xizmat ko'rsatuvchi texnologiya yoki uchinchi tomon xizmat ko'rsatuvchi provayderlar kabi boshqa tomonlar ham jalb qilinishi mumkin. Tartibga soluvchi tashkilotlar (Regulyatorlar) ETTning ishlashini nazorat qiladi va amaldagi qonunlar va qoidalarga muvofiqligini ta'minlaydi. Xizmat ko'rsatuvchi texnologiyalar turli tizimlar va standartlar bilan o'zaro ishlash va muvofiqlikni ta'minlash uchun ETT apparat va dasturiy komponentlarini ishlab chiqadi va qo'llab-quvvatlaydi. Uchinchi tomon xizmat ko'rsatuvchi provayderlar foydalanuvchilarga ETTdan foydalanish qulayligi uchun sodiqlik dasturlari, nizolarni hal qilish yoki ma'lumotlarni tahlil qilish kabi qo'shimcha xizmatlarni taklif qiladi.

Elektron to'lov sxemasini batafsil ko'rib chiqamiz. Elektron to'lovning asosiy ishtirokchilari:

1. Xaridor;
2. Internet-do'kon;
3. Bank-emitent (kartani chiqaruvchi);
4. Bank-ekvayer (tranzaksiyani dastlabki ishlovini amalga oshiradi va hamkorlar tomonidan amalga oshiriladigan karta operatsiyalarining to'liq spektrini taqdim etadi);
5. To'lov serveri (to'lov xavfsizligini ta'minlaydigan elektron to'lov tizimi va boshqalar).



1-rasm. Elektron to'lovni amalga oshirishning odatiy sxemasi.¹

O'zbekistonda mavjud Payme, Click, Oson, Payway va Upay elektron to'lov tizimlarining imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz (1-jadval).

1-jadval

O'zbekistondagi elektron to'lov tizimlari imkoniyatlarining qiyosiy tahlili

Funksiyalar	Click	Payme	Oson	Payway	Upay
Uzcard/Humo kartalarni ulash	+	+	+	+	+
Visa/Mastercard Uzbekistan kartasini ulash	-	+	-	*	-
Visa/Mastercard/Mir Rossiya kartasini ulash	-	-	+	+	-
Xorij kartasiga pul o'tkazish	-	-	+	+	-
Elektron hamyonlarga pul o'tkazish	-	+	+	+	+
O'tkazmalar uchun Cashback (bonus)		+	+	+	-
P2P da min summa	1 000	1 000	5 000	2 000	1 000
P2P da kommissiya summasi	1%	1%	1%	0%	1%
Karta monitoring xizmati narxi	1 000 so'm dan	2 000	1 000 so'm dan	2	
Onlayn o'yinlarga to'lovlar	+	+	+	+	+
Xorij kartasidan to'lovlarni amalga oshirish	-	-	+	+	-
Xorijiy raqam orqali ro'yxatdan o'tish	-	+	-	-	-

Ilova: + bor, — yo'q, * funksiya mavjud ammo ayni damda ishlamaydi.

1-jadval ma'lumotlaridan kelib chiqqan holda O'zbekistonda mavjud elektron to'lov tizimlaridan optimali sifatida OSON to'lov tizimini tanlandi. Sababi bu to'lov tizimidan foydalanish uchun nafaqat O'zbekiston raqami orqali balki boshqa istalgan

¹ Виды интернет-денег: неизвестное об известном // URL: <https://www.cnews.ru/reviews/free/payments/articles/kinds.shtml>

xorij raqamlari orqali ro'yxatdan o'tish va dunyoning qaysi burchagida bo'lishdan qat'i nazar undan foydalanish mumkin.

Payme to'lov tizimining Click to'lov tizimidan qulaylik tomonlari shundaki, birinchidan karta monitoring xizmati uchun nechta karta ulanganidan qat'iy nazar oyiga 2 000 so'm haq to'lanadi (Click da har bir karta uchun 1 000 so'mdan), ikkinchidan Payme da hozirda Viza, Mastercard, UnionPay (faqat Kapital bank kartalari) kartalarini ulash imkoniyati mavjud ammo hali bu kartalar orqali to'lovlarni amalga oshirish yo'lga qo'yilmagan. Faqatgina valyuta almashtirish (konvertatsiya) funksiyasi ishlaroqda. Uchinchidan Payme orqali elektron hamyonlarga pul o'tkazish mumkin ammo bu funktsiya Clickda mavjud emas.

Payway to'lov tizimi. Bu to'lov tizim rasman 2021-yil may oyida O'zbekiston Markaziy banki tomonidan rasman ro'yxatga olingan. Quyida Payway to'lov tizimining Oson to'lov tizimidan farqli imkoniyatlarini keltirib o'tildi:

- Visa / Mastercard Uzbekiston kartalari ulash imkoniyatining mavjudligi;
- o'tkazmalar uchun bonus (cashback) mavjud emas, buning asosiy sababi o'tkazmalar uchun % komissiya xizmatining yo'qligi;
- kartadan kartaga pul o'tkazish (P2P) xizmatida oyiga 10 mln so'mgacha 0% kommissiya bilan o'tkazish imkoniyati;
- P2P da minimal o'tkazish summasi kamligi;
- karta monitoring xizmati uchun haq karta ilovaga ulangan karta soniga qaramasligi.

OSON to'lov tizimi 2017-yil 18-avgustda beta rejimida ishga tushirildi. Bu to'lov tizimi orqali nafaqat O'zbekistondagi kommunal to'lovlarni to'lash balki, MDH davlatlardagilarni ham to'lash imkoniyati mavjud. Bundan tashqari mahalliy va xorijiy uyali aloqa uchun, global o'yin xizmatlari uchun, xorijiy va mahalliy onlayn TV uchun, onlayn do'konlarda xaridlar uchun to'lovlarni amalga oshirish mumkin.

O'rganilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki O'zbekistondagi elektron to'lov tizimlarida quyidagi kuchli, zaif tomonlar, imkoniyat va tahdidlar mavjud (2-jadval).

2-jadval

O'zbekistondagi elektron to'lov tizimlari SWOT tahlili

Kuchli tomonlar
1. Dunyoning istalgan nuqtasidan Internetga ulangan holda to'lovlarni amalga oshirishning qulayligi 2. Firibgarlikning oldini olish maqsadida shifrlash va autentifikatsiya choralariidan foydalangan holda tranzaksiyalarni bajarishi 3. Bank filiallari va bankomatlar kabi jismoniy infratuzilmalarga bo'lgan ehtiyojni kamayishi 4. Billing tizimi bilan integrallashganligi 5. Avtoto'lov xizmatining mavjudligi to'lovlar kechikishi va jarimalar oldini oladi 6. 24/7 ish tartibida mijozlarni qo'llab-quvvatlash xizmatining mavjudligi
Zaif tomonlar
1. O'zbekistonda ko'p odamlar xavfsizlik va shaxsiy daxlsizlik tufayli elektron to'lov tizimlaridan foydalanish borasida ishonchi yo'qligi

2. Kichik biznes subyektlari orasida hali keng tarqalmaganligi 3. Iste'molchilar elektron to'lov tizimlaridan foydalanish uchun zarur bo'lgan texnik bilimga ega emasligi 4. Internetga ulanish va texnologik infratuzilmaning cheklanganligi sababli hamma ham foydalana olmasligi 5. Texnologiyaga bog'liqligi, tizim ishdan chiqqan holatda to'lovlarni amalga oshirish va qabul qilish imkoniyatining yo'qligi 6. Visa xalqaro to'lov tizimining etarli darajada shakillanmaganligi (Visa orqali amalga oshirish mumkin bo'lgan operatsiyalarga bank tomonidan cheklovlar borligi)
Imkoniyatlar
1. To'lovlarni tez va samarali amalga oshirish natijasida vaqtning tejallishi 2. Qog'ozbozchilikning kamayishi, yo'qligi 3. To'lovlarga beriladigan cheklarning qog'oz ko'rinishdagi to'lov kvitansiyalari bilan teng kuchliligi 4. To'lovlarni amalga oshirishda to'lov summasining ma'lum bir qismi bonus (cashback) sifatida foydalanuvchiga qaytarilishi 5. Hisobingizni nazorat qila olish imkoniyatining mavjudligi
Tahdidlar
1. Kiberhujumlar va texnik nosozliklar natijasida pul va shaxsiy ma'lumotlarning yo'qolishi 2. Firibgarlik operatsiyalarini amalga oshirishda zararli dasturlar yoki fishing hujumlardan foydalanish 3. Ichki tahdidlar (to'lov tizimiga kirish huquqiga ega bo'lgan xodimlar yoki uchinchi tomon provayderlari tomonidan tahdidlar)

SWOT tahlil natijasiga ko'ra yuzaga kelgan tahdidlarni bartaraf etish borasida takliflar:

- to'lov tizimlari rivojlanib borar ekan ular faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi xavf-xatarlar soni ham oshib boradi. Shunday ekan to'lov tizimlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida ularni muntazam ravishda yangilab, texnik tekshiruvlardan o'tkazib turish, yangi zamonaviy texnologiyalarni qo'llash talab etiladi;

- firibgarlikni oldini olish maqsadida foydalanuvchilarga to'lov tizimlaridan foydalanish yuzasidan tushuntirish ishlari olib borish talab etiladi. Xususan shaxsiy ma'lumotlarni uchinchi shaxs tomonlarga oshkor etmaslik, turli xil yolg'on ma'lumotlarga ishonmasliklari yuzasidan e'lonlar, xabarlar yuborib turish talab etiladi;

- ichki tahdidlarga keladigan bo'lsak, bu tartibdagi tahdidlar oldini olish maqsadida to'lov tizimiga kirish huquqiga ega bo'lgan xodimlar yoki uchinchi tomon provayderlariga nisbatan ularning ish vakolatlari va majburiyatlari bo'yicha foydalanuvchilar ma'lumotlarini oshkor etmaslik bo'yicha qonuniy jihatdan nazoratga olinishi zarur.

Elektron to'lov tizimlarining zaif tomonlariga keladigan bo'lsak, ularni bartaraf etish yuzasidan quyidagi ishlar amalga oshirilishi talab etiladi:

- foydalanuvchilar ishonchini qozonish maqsadida ularga mazkur to'lov turi yuzasidan tushuntirish ishlari olib borilishi zarur. Foydalanuvchilarga elektron to'lov tizimlaridan foydalanish qanchalik qulayligini yoritib berish, to'lov tizim imkoniyatlari bilan tanishtirish ishlari olib borilishi kerak;

- kichik biznes subyektlari orasida keng tarqatish maqsadida elektron to'lov tizimlari zamonaviy texnologiyalaridan kichik biznes miqyosida foydalanishni yo'lga qo'yishni takomillashtirish zarur. Masalan muddatli to'lov texnologiyasini BNPL

- Yurtimizda internet tarmoqlarini tubdan isloh qilish masalalari ko'rib chiqilishi talab qilinadi. Internet bilan bog'liq bo'lgan muammolar borligi sababli elektron to'lov tizimlarining rivojlanishi boshqa davlatlarga nisbatan orqada qolmoqda;

— Visa xalqaro to'lov tizimi imkoniyatlarini yanada kengaytirish, mavjud cheklovlarni bartaraf etish. Hozirda Visa kartalari orqali amalga oshirish mumkin bo'lgan tranzaksiyalarda bank tomonidan cheklovlar borligi yurtimizda Viza xalqaro to'lov tizimining yaxshi rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Misol sifatida Milliy bank (NBU) Visa kartasi pul ko'chirish uchun foydalanuvchi NBU bank so'm kartasiga (Humo yoki Uzcard)ega bo'lishi kerak. Boshqa istalgan bank Humo yoki Uzcard kartasidan pul ko'chirib bo'lmasligi, Xorijiy Visa, Mastercard (Rossiya, Amerika) kartalaridan foydalanish jarayonida komissiya haqi kattaligi ham yurtimizga kelgan xorij fuqarolariga ma'lum miqdorda noqulaylik tug'dirishi tabiiy.

O'zbekistonda elektron to'lov tizimlarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarga quyidagilar kiradi:

Normativ muhit: O'zbekistondagi tartibga solish muhiti elektron to'lov tizimlarining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ma'lumotlar maxfiyligi, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va moliyaviy operatsiyalarga oid hukumat siyosati va qoidalari elektron to'lov tizimlarini joriy qilish tezligiga ta'sir qilishi.

Infratuzilma: Internetga ulanish va mobil internet tarmoqlar kabi texnologik infratuzilmaning mavjudligi va ishonchliligi elektron to'lov tizimlarining rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkin. O'zbekistonda, ayniqsa, qishloq joylarda texnologik infratuzilmani yaxshilash uchun hali ham imkoniyatlar mavjud (ya'ni qishloq joylarda internet tizimini yaxshilash).

Iste'molchilarning xulq-atvori: Iste'molchilarning xohish-istaklari ham elektron to'lov tizimlarini joriy etishda muhim rol o'ynaydi. Elektron to'lovlarga ishonch yo'qligi sababli muayyan to'lov usullaridan foydalanish yoki naqd pul operatsiyalarini afzal ko'rishda madaniy to'siqlar borligi.

Xavfsizlik masalalari: Har qanday mamlakatda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham elektron to'lov tizimlari rivojlanishida ma'lumotlarning sizib chiqishi, shaxsiy ma'lumotlarning o'g'irlanishi, firibgarlik va kiberhujumlar bilan bog'liq xavfsizlik muammolari muhim omil hisoblanadi. Ushbu muammolarni hal qilish iste'molchilarning ishonchini qozonish va keng miqyosda qabul qilish uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Iqtisodiy omillar: O'zbekistondagi iqtisodiy vaziyat elektron to'lov tizimlarining rivojlanishiga ham ta'sir qilishi mumkin. Daromad darajasi, bank xizmatlaridan foydalanish va kichik biznesning keng tarqalishi kabi omillar elektron to'lov variantlariga bo'lgan talabga ta'sir qilishi mumkin.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda elektron to'lov tizimlarining ahamiyati ortib bormoqda. Elektron tijorat va raqamli banking rivojlanishi bilan elektron to'lov tizimlari mamlakat moliyaviy infratuzilmasining muhim tarkibiy qismiga aylandi.

O'zbekistonda elektron to'lov tizimlarining rivojlanishi uzoq yo'lni bosib o'tdi va tadbirkorlik subyektlariga ham, jismoniy shaxslarga ham ko'plab qulayliklar keltirdi. Mazkur maqolada O'zbekistondagi elektron to'lov tizimlarining bugungi holati o'rganib chiqildi va hali echimini kutayotgan muammolar aniqlandi.

Mazkur maqola doirasida olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari yuzasidan quyidagi xulosalar shakllantirildi:

- to'lov tizimi — to'lov tizimi operatori, to'lov tizimi ishtirokchisi va to'lov tashkilotlari ilovasi orqali o'zaro hamkorlik bilan to'lovlarni amalga oshirishni ta'minlaydigan jarayonligi;

- O'zbekistonda elektron to'lovlarning nazariy asosi raqamli valyutalar tushunchasi va xavfsiz, tezkor tranzaksiyalarni amalga oshirish imkonini beruvchi texnologiyalarga asoslanganligi;

- bugungi kunda yurtimizda hammaga ma'lum bo'lgan Humo va Uzcard to'lov tizimi operatorlaridan tashqari yangi "United Fintech" to'lov tizimi operatori ro'yxatga olingan. Joriy yilning ikkinchi choragidan boshlab o'z faoliyatini boshlashni rejalashtirayotganligi aniqlandi. Bu o'z o'rnida elektron to'lov tizimlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

- yurtimizda xalqaro PayPal elektron to'lov tizimi o'z xizmatlarini ko'rsatmayotganligi sabablari ko'rib chiqildi;

- O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan elektron to'lov tizimlari solishtirma tahlili natijasida ularning orasida Oson elektron to'lov tizimi optimalligi aniqlandi;

- xorijiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganilishi natijasida Elektron to'lov tizimlarining me'yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqildi;

- O'zbekistonda elektron to'lov tizimlari rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar aniqlandi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, elektron to'lov tizimlarini rivojlantirishda sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, hali qilinadigan ishlar ko'p. Tegishli infratuzilmaning yo'qligi, me'yoriy-huquqiy hujjatlarning etarli emasligi va moliyaviy integratsiyaning past darajasi hal qilinishi kerak bo'lgan asosiy muammolardandir.

O'zbekistonda elektron to'lov tizimlarini rivojlantirish yuzasidan taklif va tavsiyalar.

1. O'zbekistonda elektron to'lovlar borasida moliyaviy savodxonlikni oshirish. Elektron to'lovlarning afzalliklari va ulardan to'g'ri foydalanish bo'yicha xabardorlikni oshirish ko'proq odamlarni ushbu usuldan foydalanishga undashi mumkin.

2. Infratuzilmani takomillashtirish. O'zbekistonda mavjud elektron to'lov tizimlari infratuzilmasini takomillashtirish zarur. Bunga internet aloqasini yangilash, savdo terminallari sonini ko'paytirish, elektron to'lov tizimlarining ishonchliligi va xavfsizligini oshirish kiradi.

3. To'lovlar uchun NFC gadjetlarni (smart bilakuzuklar, uzuklar, soatlar, stikerlar, kalit halqalari va aqlli kiyimlar) joriy qilish.

4. Tijorat banklari tomonidan MPOS (Mobile Point of Sale) terminallarini ishlab chiqishni joriy etish.

5. Elektron hamyonlar (E-wallet), bitcoin va blokcheyn texnologiyasiga asoslangan innovatsion mahsulotlarni keng joriy qilish va ularni tartibga solish yuzasidan me'yoriy huquqiy hujjatga qo'shimcha kiritish.

6. SoftPos – mobil Pos terminallardan foydalanishni kengaytirish. Yurtimizda mavjud “One Toch”, “Marta” SoftPos terminalini takomillashtirish. Bu kabi terminallar orqali to'lovlar onlayn NFC tizimi orqali qabul qilinadi. To'lovni amalga oshirish uchun mijozda Humo, Visa yoki Mastercard kartasi bo'lsa bas SofPos ilovasi o'rnatilgan smartfonga kartani yaqinlashtirish yo'li orqali amalga oshiriladi.

7. Debit kartalar o'rniga dual interfeysli Uzcard kartalarini ishlab chiqarishni kengaytirish. Kelgusida muammolar yuzaga kelishini oldini olish maqsadida aholiga hozirdan dual interfeysli kartalardan foydalanishning afzalliklari va qulayliklari yuzasidan tushuntirish ishlari olib borishni yo'lga qo'yish.

8. O'zbekistonda “Neobank” larni yangi texnologiyalar va yangi platformalar asosida faoliyat ko'rsatuvchi filialsiz onlayn banklar ko'paytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shaislamova M. & Kamoliddinov A. (2023). ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI. Interpretation and Researches, 1(7).

извлечено

от

<https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/223>

2. Shaislamova M. & Kamoliddinov A. (2023). ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI. Interpretation and researches, 1(7).

3. Шаисламова М. Р. & Ибрагимова С. А. (2013). Повышение конкурентоспособности предприятия в условиях глобализации.

4. Shaislamova M. R. (2019). HUMAN CAPITAL ENHANCEMENT. ББК 65 М 34, 378.

5. Shaislamova M. (2021). Organization of innovative activities in telecommunications enterprises. Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT), 12(9), 1434-1440.